

KORRUPSIYA

*Andijon davlat pedagogika instituti
Falsafa fan o'qituvchisi ilmiy rahbari*

Usmonova Shoxsanam

*Andijon davlat pedagogika instituti
Kimyo tabiiy fanlar yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

Mutalipov Abdulloh

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashning nazariy masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotchi ushbu maqolada ko'plab olimlarning fikrlarini bayon etgan. Bundan tashqari, ushbu sohada muammoning ko'plab xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, inson omili, qonun, nazariy yondashuv, tarkibiy tahlil, xususiy tashkilot

Korrupsiya— mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o'tkazish harajatlarini ko'tarish Korrupsiya ko'rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib „o'z qarzini“ qaytaradi). Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha „Lokxid ishi“ eng yirik Korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq „xizmat haqi“ to'lash amaliyotidan foydalaniladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan, korrupsiya iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta omildir.

Korrupsiyaning eng xavfli shakllari og'ir jinoyatlar sifatida baholanadi. Ular qatoriga, eng avvalo, qonunga xilof ravishda sarf etilgan pul (rastrata) va pora kiradi. Rastrata mansabdor shaxsga ishonib topshirilgan resurslarni shaxsiy maqsadlarda sarflashdan iborat. U oddiy o'g'rilikdan shunisi bilan farq qiladiki, shaxs dastlab resurslarni tasarruf qilishga qonuniy huquqni qo'lga kiritadi. Pora korrupsiyaning bir turi bo'lib, bunda mansabdor shaxsning harakatlari unga belgilangan foyda taqdim etish evaziga yuridik yoki jismoniy shaxsga xizmat ko'rsatishdan iborat. Aksariyat

hollarda agar pora berish ta'magirlikning oqibati bo'lmasa, asosiy foydani pora beruvchi oladi. Qattiq jinoyatlar qatoriga, shuningdek, saylovchilar ovozini sotib olish ham kiradi garchi ayrimlar uni korrupsiyaning bir shakli emas, halol bo'lmagan saylov kampaniyasi turi deb korrupsiyaning turlicha namoyon bo'lishlari turlicha axloqiy bahoga ega. Ayrim harakatlar jinoiy, boshqa harakatlar esa – axloqsiz harakatlar hisoblanadi. Axloqsiz harakatlar qatoriga, qoidaga ko'ra, meritokratiya tamoyillarini buzadigan siyosiy yo'nalishlar asosida homiylik qilish va oshna-og'aynigarchilik qilish kiradi.

Biroq korrupsiyaga nisbatan ijobiy munosabat ham uchraydi. Korrupsiyani qonun rivoji sust bo'lgan joylarda qonun ustunligini foydali almashtirish deb hisoblash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, korrupsion faoliyatdan foyda u amalga oshirishga imkon beradigan qo'shimcha unumli transaksiyalar natijasida yaratiladigan qiymat – xarajatlardan katta bo'lishi mumkin. Bunday vaziyat ehtimoli biznes bilan shug'ullanish uchun qonuniy imkoniyatlar juda cheklangan holatlarda eng yuqori bo'ladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratuvchi omillar bu illat ustidan tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy nazorat yetarli emasligi hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

rejalashtirishdagi kamchiliklar, shartnoma talablarini ishtirokchilar tomonidan buzilishi, xizmat faoliyatini tashkil etishdagi nuqsonlar (majburiyatlarni taqsimlash, vakolatni belgilash, ish xajmining ko'pligi va h.k.);

kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar (bilimsiz va tajribasi yo'q yoki ishonchsiz shaxslarni qarindosh urug'chilik, tanish-bilishchilik asosida ishga qabul qilish va shunga o'xshash holatlar);

hisob-kitob va nazoratning sustligi;

xo'jasizlik va ortiqcha sarf-xarajatga yo'l qo'yib berish (energiya manbalaridan, moddiy va odam resurslaridan tejamkorliksiz foydalanish), tarbiyaviy ishlardagi nuqsonlar;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatidagi mansabdor shaxslar, xizmatchilarning foydasi va sarf-harajatlari va ular tomonidan xizmat vazifalarini bajarishi ustidan nazoratni yo'qligi, shuningdek, korrupsiyaviy holatlarga e'tiborsizlik.

Korrupsiya – O'zbekistonda jiddiy muammo. Korrupsiyaning oldini olish bo'yicha qonunlar mavjud, ammo korrupsiyaga oid qonunlarning ijrosi juda zaif. Korrupsionerlarning jinoiy javobgarlikka tortilish darajasi pastligi O'zbekistonda korrupsiyaning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Nodavlat sektordagi mansabdor shaxsning davlat mansabdor shaxsi ixtiyoriga ta'sir qilishi jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmaydi. Sud tizimi cheklangan resurslar va korrupsiya tufayli jiddiy funksional kamchiliklarga duch kelmoqda.

O‘zbekistonda korrupsiya jamiyat, biznes va hukumatning deyarli barcha qatlamlarida mavjud. O‘zbekiston dunyodagi eng korrupsiyalashgan mamlakatlardan biridir.

Transparency International xalqaro tadqiqotlar markazining 2021-yilgi korrupsiyani idrok etish indeksida O‘zbekiston 180 mamlakat ichidan 140-o‘rinni qayd etdi. Bu reytingda 180-o‘rinni egallagan davlat eng korrupsiyalashgan davlat deb hisoblanadi.

„Quyida va o‘rta darajadagi amaldorlar o‘rtasidagi poraxo‘rlik kundalik hayotning bir qismidir va ba‘zan hatto oshkoradir“, deb ta’kidlaydi Freedom House.

Amnesty International tashkilotining 2015-yildagi hisobotida „O‘zbekistonda korrupsiya hamma joyda tarqalgan saraton kabi“ ekani aytiladi.

Korrupsiya – bu ijtimoiy tuzumning shakllanishi bilan dastlabki belgilari paydo bo‘lgan qadimiy hodisa. Lotin tilidan tarjima qilingan “*corrumpere*” – mansabdor shaxsning o‘ziga ishonib topshirilgan vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishini bildiruvchi atama. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bu hodisa turli vaziyatlarga va siyosiy rejim turlariga moslashib, o‘zgarib, yangi shakllarga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari korrupsiya illatiga antik davr faylasuflari va donishmandlari tomonidan ham e’tibor qaratilgan.

Platon bekamu-ko‘st davlat tushunchasi haqida fikr yuritar ekan, hokimiyat xizmatchilarini har qanday mulk masalasini hal qilish imkoniyatidan mahrum etishni orzu qilgan.

1498 yilda yuqoridagi aytib o‘tilgan tarixiy syujet flamand rassomi Gerard David tomonidan Bryugge shahridagi sud zali devoriga chizilgan. Rassomning Kambiz sudi nomli ushbu asari qozilar uchun o‘ziga hos tarbiya hamda qozilar sha‘nini eslatib turish uchun xizmat qilgan.

Korrupsiyaatamasini birinchi bo‘lib bugungi kundagi tushunchaga yaqin ma’noda ishlatgan mashhur italyan siyosatchisi Nikkolo Makiavelli (1469-1527) bo‘lib, unga quyidagicha ta’rif bergan: Davlat imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanish; mansabdor shaxslar tomonidan talon-taroj qilish tizimi.

Shuningdek, u korrupsiyani dastlab tanib olish qiyin, ammo davolash oson, keyin esa tanib olish oson, lekin davolash deyarli imkonsiz bo‘lgan kasallik bilan qiyoslagan.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada Qur’oni Karimning Baqara surasi 188 oyatida Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini gunoh ila yeyishingiz uchun uni hokimlarga tashlamang deyilganligi Muqaddas islom dini ham korrupsiyaga, poraxo‘rlikka qarshi ekanligidan dalolat beradi.

Imom Buxoriyning muborak hadislarida: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam biron hukm borasida pora beruvchini ham, pora oluvchini ham la’natlaganlar!” . Yana

ul zot aytadilar: “ Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la’natlasin!” .

Taniqli hanafiy olimi va faqihi Zayn al-obidin (Zayniddin) Ibn Nujaym al-Misriy al-Hanafiy (1519-1563) rahimahullohning mazkur «Pora va uning turlari» risolasida poraning bayoni, uning turlari haqida, uning zaminida qoziga olish joiz bo’ladigan yoki umuman mumkin bo’lmaydigan narsalar, poraning halol va harom bo’ladigan holatlari to’g’risida so’z yuritiladi. Shuningdek, pora bilan hadiyaning orasidagi farq haqida, pora olganda uning egasi kim bo’lishi haqida, pora oluvchilarning ta’zirini berib qo’yilganda, oshkora hammaga ma’lum qilinishi borasida ham so’z yuritilgan.

Xalqaro moliya sohasida 25 yil davomida ishlagan, Jahon bankining sobiq katta menedjeri Piter Eydjien, u yerda sodir bo’layotgan noqonuniy ishlarning guvohi bo’lganligi uchun xizmatni tark etgan va o’zining hayotini butun dunyo bo’ylab korrupsiyaga qarshi kurashishga bag’ishlagan. U korrupsiya muammosini o’rganish jaryonida hozirda taniqli bo’lgan “ Xalqaro shaffoflik” tashkilotini (Transparency International) yaratdi. Ushbu tashkilot har yili “ Korrupsiyani idrok etish indeksi” – CPI deb ataladigan dunyo mamlakatlari reytingini e’lon qilib boradi.

Yuqoridagi reytingning paydo bo’lishi bilan dunyoda korrupsiyani o’rganishga qiziqishning kuchayishiga va uning ilmiy izlanishlarining faollashishiga yordam berdi.

“ Xalqaro shaffoflik” tashkilotining bevosita ishtirokida mansab vakolatlarini suiisteomol qilishga qarshi kurashish masalalari bo’yicha bir qator xalqaro ilmiy anjumanlar o’tkazildi.

Korrupsiya muammolariga e’tibor kuchayishi natijasida, 1995 yil 31 dekabrda Britaniyaning “ Financial Times” gazetasi 1995 yilni “ Korrupsiyaga qarshi kurash yili” deb e’lon qilishni taklif qildi.

Bu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi va 2003 yil 1 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan “ Korrupsiyaga qarshi Konventsiya” imzolanishi jaryonida, 9 dekabr “ Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni” deb e’lon qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra, hozirgi kunda dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollaridan ortiq hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti esa har yili Korrupsiyaning oqibatlarini tufayli 2,6 trillion dollar mablag’ yo’qotadi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 % ini tashkil qiladi.

O’zbekistonda mustaqillik yillarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha birmuncha islohotlar amalga oshirildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konventsiyasiga, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog’i – Istanbul harakat dasturiga qo’shildi. Xalqaro va milliy huquq me’yorlariga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashishning Milliy rejasi ishlab chiqildi. Shuningdek, “ Korrupsiyaga qarshi

kurashish to'g'risida" qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir necha farmon va qarolari qabul qilindi.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davom etayotganiga qaramay, mazkur illat davlatning barcha sohalarida keng tarqalganligi mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqdi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Respublika bo'yicha sudlar tomonidan jami 4 607 ta korrupsiyaga oid jinoyat ishlarida 6 535 nafar shaxs (2022-yilda 7 414 nafar shaxs) jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida, 2023-yilda davlat manfaatlariga jami 1 trln. 435 mlrd (2022-yilda 2 trln. 43 mlrd) so'm miqdorida zarar yetkazilganligi aniqlandi. Ushbu zararining 745 mlrd so'mi yoki 51 foiz qoplangan.

Ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlar tahlili, korrupsiyaga qarshi kurashda yetkazilgan zararni to'liq qoplash, korrupsionerlarga qarshi qaratilgan jinoyatlarga keskin jazo qo'llashni kuchaytirishni ko'rsatmoqda. Shuningdek, bugungi kunda ushbu illatdan holis bo'lish uchun korrupsionerlar ustidan o'tkazilayotgan sud jarayonlarini ommaviy axborot vositalari orqali ochiq namoyish qilishni yo'lga qo'yish, poraxo'rlar va korrupsionerlar o'tirgan qamoqxonalarga mansabdor shaxslarni ekskursiyaga olib borish, korrupsioner amaldorlar tomonidan o'g'irlangan pullarni Xalq banki kassalariga topshirish jarayonini keng jamoatchilikka ko'rsatish, korrupsiyaga oid qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikka xukm qilingan shaxslarni mansabdorlik lavozimiga qo'yilmaslik hamda shunday shaxslarni davlat va boshqa mukofatlarga tavsiya qilmaslik zarur.

Shuning uchun har bir fuqaro go'zal va betakror yurtimizning bugungi va ertangi kuni, yorug' kelajagi uchun avvalambor o'zi mas'ul ekanligini unutmazligi kerak.

Zero, tarix o'tmish fani sifatida bugungi kunni to'g'ri yo'naltirishga va kelajakka yo'l topishga intilayotganlar uchun doimo foydalidir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tahlillar va metodologik kuzatishlardan shu narsa ko'rinib turibdiki, korrupsiyaning mohiyatini, uning tuzilishini tushunishga yondashuvlarni o'rganish korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali choralarini ishlab chiqishga yordam beradi va pirovardida davlat boshqaruvida qonuniylik va intizomning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Buning uchun esa keng ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishi, taraqqiyotimiz kushandasi sifatida ko'rilayotgan ushbu illatning keng quloqch yoyishiga yo'l qo'yilmaslik uchun olib borilayotgan chora-tadbirlarni samaradorligini yanada oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Shuningdek, korrupsiya jinoyatchiligiga qarshi kurashishda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek milliy

qonunchiligimizda unga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada kuchaytirish bu xavfli illatga qarshi yanada samarali kurashishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. И.Д.Фиалковская (2015), Противодействие коррупции как цель контрольно-надзорной деятельности в государственном управлении: зарубежный опыт // Материалы I Всероссийской научно-практической конференции «Актуальные вопросы контроля и надзора в социально значимых сферах деятельности общества и государства». Н. Новгород.
2. М.В.Костенников (2004), Куракин А.В. Предупреждение и пресечение коррупции в системе государственной службы. М.,.
3. В.В.Лунеев(2000) Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы (Тезисы доклада) // Государство и право.. № 4.101 с
4. П.А.Чебоксаров (2001) Проблема коррупции на уровне местного самоуправления // Актуальные проблемы антикоррупционной политики на региональном уровне: Материалы региональной научно-практической конференции. СПб., 220 с